

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'ZBEK TILI DARSLARIDA TA'LIMNING ZAMONAVIY USULLARIDAN
FOYDALANISH

M.Shojonova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: A.Sultanova

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika

instituti O'zbek tili kafedrasi dotsenti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablari o'zbek tili darslarida "Qiziqarli lug'atlar", "Idiomalar" mavzularini samarali tashkillashtirish va o'qitish yuzasidan fikr va mulohazalar yuritilgan bo'lib, muallif tomonidan mavzularni o'qitish yuzasidan metod va tavsiyalar keltirilgan. Tilimizdagи idiomalar va lug'atlarning ifoda xususiyatlari va qolaversa, ta'lif ishini tashkil etishning maqsad va vazifalari izohlangan.

KALIT SO'Z: Adabiy me'yор, ifoda xususiyati, idiomalar, lug'atlar, ta'lif ishi, metodik tavsiyalar, metodlar.

Kelajak avlodning intellektual bilim salohiyatini oshirish, jamiyatimiz uchun nafi tegadigan raqobatbardosh va ma'naviyati yuksak kadrlarni tarbiyalash dolzarb vazifalardan sanaladi. Bu borada kitob mahsulotlari, mакtab darsliklari o'ziga xos vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lif metodiga ko'zga suv purkaganday qilib bittasini ajratib olib, eng maqbuli shu deb turib olish to'g'ri emas. Avval ularni haqiqiy tanqidiy chig'iriqlardan olib o'tish kerak. N.A.Ippolitovaning fikricha, ta'lif metodini tanlashda quyidagi qoidalardan kelib chiqish muhim hisoblanadi:

- u yoki bu metodni, u yoki bu hodisani o'rganishga nisbatan (darsning maqsadi va maxsus vazifalarini hisobga olgan holda) qanchalik tatbiq etish mumkinligi;

-uning didaktik prinsiplarga qanchalik muvofiq kelishi;

-u yoki bu yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va imkoniyatlariga qay darajada mos tushishi;

-har bir komponenti boshqa metodlar bilan organik o'zaro bog'langan u yoki bu metod ta'lif metodlari tizimida qanday o'rin egallashi;

-tanlangan ta'lif metodi ta'lif oluvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qay darajada yo'nalganligi [51-b,16].

3 Ипполитова Н.А. Риторический аспект реализации обучения // Русский язык в школе. – 2007. № 2. – С. 16.

Bugungi kun o'quvchilarining raqamli ta'lif texnologiyalari bilan ta'lif olishini ta'minlash, shuningdek, mavjud va davriy adabiy jarayon bilan tanishtirish katta rol o'ynaydi. Haqiqatdan ham, o'quvchilarning ma'naviy jihatdan ong shaklini o'stirish, ularga sifatli ta'lif berishda maktab darsliklari va ularda berilgan mavzularning ahamiyati nihoyat darajada ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, maktab ta'limida, ayniqsa 10-sinf o'zbek(davlat)tili darsligidagi "Qiziqarli lug'atlar", "Idiomalar" mavzusining mufassal o'rganilishi, tahlil etilishi muhim sanalib, bu borada metodik ishlarning ham o'ziga xos roli mavjud.

Ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilar diqqatini jalg qilish va dars tashkillashtirishda yanada samaradorlikka erishish uchun bugungi kun talabi va zamon nuqtayi nazaridan munosib tarzda foydalanish zarur. Texnika-texnologiyalar rivojlangan asrning farzandlari an'anaviy tipdagi darsni ko'p hollarda ma'qul ko'rishmaydi. Darslikdagi mavzuni amaliyotga tatbiq etish uchun, o'qituvchi avvalo mavzuni sinchiklab o'rganib chiqishi lozim.

Avvalo, darslik va unda berilgan mavzu bo'yicha fikr yuritadigan bo'lsak, avvalo, mavzu bo'yicha maqsad aniq. Ya'ni bunda o'quvchilardan mavzuga xos ma'lumotlar haqida o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda bayon eta olish, matnlarni tinglab tushunish, o'qib, qayta hikoya qila olish, savollarga to'liq va asosli javob bera olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Darslikda berilgan yutuqlar shundan iboratki, avvalo o'quvchilar lug'atlar va ular to'g'risida keng tushunchaga ega bo'ladilar. Darslikdagi mavzuni o'rganish mobaynida o'rganilgan yangi ma'lumotlari asosida berilgan topshiriq va vazifalarni bajarib boradilar. Ammo darsni tashkil qilishning bunday usuli bugungi kunda u qadar ko'p natija bermaydi.

Dars boshlanmasdan oldin maqsadga muofiq darsni rejalashtirib olamiz .

Darsga kirib o'quvchilar bilan salomlashib olgandan keyin davomat olish uchun ham har xil metodlardan foydalansak bo'ladi. Bundan maqsad ham vaqtini tejash ham o'quvchining bor diqqat-e'tiborini o'qituvchiga qaratishdan iborat.

1.O'ylang va toping. Yozing. Bu mashqda surat tagidagi gaplarga mos shaklda foydalanish uchun berilgan iboralardan mosini qo'yib gaplarni to'ldirishimiz kerak.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Namuna. Анализировать – tahlil qilmoq (*tarjima lug'ati*).

1. Ilm – 1. O'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim. 2. Ish-faoliyatning ilmlar bilan bog'liq sohasi.
2. Avvalgi – oldingi, ilgarigi, burungi, qadimgi, sobiq.
3. Og'ir – vazmin, vazni katta bo'lgan, tosh bosadigan, vaznli.
4. Chang – 1. G'ubor, to'zon. 2. O'zbek milliy cholg'u asbobi.

Antonimlar lug'ati

Omonimlar lug'ati

Izohli lug'at

Tarjima lug'ati

Sinonimlar lug'ati

Bu mashqimizda berilgan to'rtta gapga mos qilib suratda berilganlardan mosi bilan moslashtirib ortiqchasini chiqarib tashlashimiz zarur .

https://www.educaplay.com/learning-resources/20767238-o_zbek_tili_moslashuv_o_yini.html

Bundan tashqari zamonaviy metodlar foydalanib turli xil saytlardan turli xil mashqlarni tuzish mumkin. Masalan, educaplay dasturidan foydalanib, darsimizni mazmunli va maroqli o'tkazish uchun mashq bajaramiz .

Idioma –har bir tilning faqat o'zizagina xos bo'lgan, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo'lmaydigan , faqat ekvivalent (muqobil)ini ishlatalish mumkin til bo'lgan birliklari. Har qaysi xalqning o'ziga tegishli tushunchalari bor.

Unda berilgan so'roqlar asosida gap tuzish talab etiladi. So'ngra "Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi mustaqil so'z yoki so'zlar birikmasi gap bo'laklari hisoblanadi" degan ta'rif beriladi. Ta'rif sof deduktiv metoddan bayon qilinadi. So'zlar birikmasining gap bo'lagi sanalishi uchun uning tarkibi tahlil qilinishi kerak: birikma mustaqil va yordamchi so'zdan iborat ekanligi aniqlanishi, fe'llarda ularning tuzilish xususiyati ochilishi, shundan keyin ma'lum bir so'roqqa javob bo'lishi ko'rsatilishi lozim edi. Shunday bo'lmagach, o'quvchilar tushunchani chala o'zlashtiradilar.

Xullas, o'zbek tili o'qituvchisi har mavzuning xususiyatidan kelib chiqib eng maqbul metodlar tizimidan tanlab foydalanishi, bunda yuqori samaradorlikni ko'zlashdan tashqari, o'quvchilarni bilim olishga, lingvistik mavzuda o'z fikrlarini asoslab, suhbатdoshini o'z so'ziga ishontirib mushohada yuritishga o'rgatish vazifalarini hal etishga intilishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ипполитова Н.А. Риторический аспект реализации обучения // Русский язык в школе. – 2007. № 2. – С. 16.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

2.Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun o‘zbek (davlat) tilidan o‘quv dasturi / Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2005. - № 4. – B. 38–43.

3. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun o‘zbek (davlat) tilidan Davlat ta’lim standarti // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2005. - № 4. – B. 35–37.

4. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun o‘zbek (davlat) tili fanidan takomillashtirilgan Davlat ta’lim standarti / Tuzuvchilar: R.Yo‘ldoshev, A.Rafiyev // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2007. - № 5. – B. 52–57.

5. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o‘zbek (davlat) tili fanidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi (7-sinf uchun) // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2007. - № 5. – B. 58–65.

6. To‘xliev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi: (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Yangi asr avlodni, 2006. – 174 b.

7. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiysi // Tuzuvchilar: A.A.Karimov, E.Z.Imamov va b. Akademik T.T.Risqiev umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2002.–15 b.

8. Umarova F.Z. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida ko‘makchi fe’lli birikuvlardan foydalanishni o‘rgatish: Ped. fan. nomz. ... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2000. – 25 b.

9. Yusupova T. Gapning bosh bo‘laklarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirish (Metodik qo‘llanma). – Toshkent: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2